

Dastlabki ma'lumotlar

## Xizmatlar sohasining rivojlanishi – Jizzax viloyati farovonligining asosi

Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy siyosatning barcha darajalarida muhim elementga aylanmoqda. Bugungi kunda bu sohani tijorat va ijtimoiy asosda ko'rsatiladigan barcha turdagи xizmatlarni o'z ichiga olgan iqtisodiyotning gipersektori deb atash mumkin.



### 2019-yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

4181,7 mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

3 058,6 ming so'm

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

115,1 %

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmining  
o'sish sur'ati

180,3 %

Moliyaviy xizmatlarning  
o'sish sur'ati

16,7 %

Xizmatlarning umumiyligi  
hajmida transport  
xizmatlarining ulushi


*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslarga - yakuniy iste'molchilarga ham taqdim etiladigan tayyor mahsulot emas, balki xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi ko'lami juda turli xildir. Bunga tovarlarni yetkazib beruvchidan buyurtmachiga yetkazib berish va transportirovka qilish, hamda, ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish ham kiradi. Shuningdek, sartaroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalar, sport klublari, sayyoqlik firmalarini va hokazolarni o'z ichiga oladi.

2020-yil 1-yanvar holatiga viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17,2 ming birlikka yetdi.




Xizmatlar sohasida jami 10,1 ming birlik korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2018-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 19,3 % ga oshdi.

Dastlabki ma'lumotlar



**2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



● Xizmatlar   ● Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi   ● Qurilish   ● Sanoat

2020-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 58,6 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: kuzatilayotgan davrda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 16,2 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi 14,7% ga yetdi va atiga 10,5 % qurilish sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

2020-yil 1-yanvar holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (35,8 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning soni 11,0 % ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi va xizmatlar sohasidagi tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi ularning umumiyligi sonida 5,9 % ga yetdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 1,8 % ga teng bo'ldi.

**2020-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Ma'lumot uchun:** 2019-yil 1-yanvar holatiga, xizmatlar sohasida 8,4 ming birlik korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari - 31,3 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 11,3 %, tashish va saqlash - 6,1 %, axborot va aloqa - 2,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,4 %, boshqa turlar - 46,9 % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,6 ming birlikka ko'paydi.


*Dastlabki ma'lumotlar*

Kichik tadbirkorlik haqida birinchi yozma xabar 4000 yil oldin paydo bo'lgan, bu, xususan, moliyaviy xizmatlarning tavsifi (qarz beruvchilar foizlar evaziga qanday qilib qarz berishlarini tavsifi) edi.

Asosan kichik tadbirkorlik sababli sivilizasiya turli mamlakatlarga tarqaldi. XXI asrning so'ngi o'n yilligi ushbu kichik tadbirkorlik sohasining o'rni ko'p jihatdan yangi mahsulotlarni ixtiro qilish va yangi ish o'rnlari yaratish qobiliyati tufayli ortdi.

"Xizmatlar sohasini rivojlantirish" Dasturini amalga oshirish doirasida, yangi tashkil etilgan xizmatlar ko'rsatish korxonalarini texnologik jihozlash uchun tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli sezilarli hajmli kreditlar ajratildi.

**2020- yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida  
kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar umumiyl sonining 81,5 % ni kichik tadbirkorlik subyektlari hissaga to'g'ri keladi.


2020-yil 1-yanvar holatiga yirik tashkilotlar ulushi 18,5 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda kichik tadbirkorlik subyektlarining faoliyati barqaror iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rnlari yaratishga, daromadlarning o'sishiga va aholining farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ular milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim qismiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, odamlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsa-tayotgan kichik tadbirkorlik subyektlar soni 1490 birlikka ko'paydi va 6965 birlikni tashkil etdi, ularning o'sish esa 27,2 % ga oshdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 49,7 % ga yetdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish nafaqat milliy iqtisodiyotni mustahkamlash, uning raqobatdoshligini oshirish, balki birinchi navbatda aholi farovonligini yanada oshirishni anglatadi. Shu sababli davlat tomonidan ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularga imtiyoz va preferensiyalar berish bo'yicha aniq tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Zamonaviy tadbirkorlik ommaviylashmoqda, bu birinchi navbatda xizmatlar sohasining rivojlanishi yoki, aniqrog'i, kichik tadbirkorlik subyektlarining aniq miqdoriy ustunligi bo'lgan ushbu sohada kichik tadbirkorlik subyektlarining faoliyati uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlar hisoblanadi. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.



**O'sish sur'ati  
115,1 %**

**Hajmi 898,5  
mlrd. so'mga  
oshdi**

**Xizmatlar hajmi  
4181,7  
mlrd. so'm**

Shunday qilib, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4181,7 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 898,5 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 15,1 % ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda hududiy innovatsion tizim muhim rol o'ynashi kerak. Bu innovatsion jarayonlar ishtirokchilari (ilmiy, texnologik, tajriba-konstrukturlik tashkilotlari, o'quv muassasalari va korxonalarning ilmiy bo'limlari, infratuzilma bo'linmalari, moliyaviy, vechur va amalga oshirish tuzilmalari), davlat organlari, shuningdek, institutsional sharoitlar, resurslar, tashkiliy va iqtisodiy aloqalar va munosabatlarning muayyan majmuasi va oqilona birikmasi bo'lib, yangi ilmiy-texnik ishlanmalarni jadal va doimiy ravishda yaratish maqsadida, ularni tanlab oladi, ularni amaliy foydalanish va bozorga raqobatdosh texnologiyalar, tovarlar, xizmatlar va ularni keng tarqatish shaklida olib borish uchun ushbu ishtirokchilarning doimiy barqaror hamkorligini ta'minlaydi.

Hududiy innovatsion tizimning samarali ishlashi uchun epizodik va fragmentar emas, balki turli hududlarda tez-tez uchraydigan barcha ishtirokchilarning doimiy o'zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda, moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi nisbati ikkinchisi foydasiga yuz beradigan tabiiy o'zgarishlarni hisobga olish kerak, ularning qiymati iqtisodchilar fikriga ko'ra "keskin oshadi".

Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolarni, hududlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishisiz hal qilib bo'lmaydi. Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.


Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Dastlabki ma'lumotlar

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

Xizmatlarning umumiyligi hajmida Jizzax shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 54,4 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, eng katta ulush Sh.Rashidov tumanida (8,5 %), G'allaorol (6,0 %), Baxmal (3,7 %) va Forish (3,2 %) tumanlarida qayd etildi.



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangiobod (1,2 %), Zafarobod (1,6 %), Arnasoy (1,9 %), Zarbdor (2,5 %) va Mirzacho'l (2,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda hududlarning moliyaviy salohiyatini yuksaltirish va unda xizmatlar sohasining rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasidagi loyihalar bu boradagi ishlar ko'laminu kengaytiradi.


*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasidagi aksariyat faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyati - bu mahalliylashtirishning yuqori darajasi, ma'lum bir hududga (hudud, shahar, tuman, shahar va qishloq aholi punktlari) bog'liqligi hisoblanadi. Shu sababli, faoliyatning hajmi, joylashishi, faoliyat turlari va ko'lamlari, mulkchilik shakllari, korxonalar va xizmat ko'rsatish tashkilotlarining ish uslublari, ularning modernizatsiya qilishdagi roli va rivojlanish potentsiali mintaqaga iqtisodiyotidagi innovatsion o'zgarishlarning ehtiyojlari, ustuvorliklari va strategiyasi bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahri (119,8 %), Forish (114,4 %), G'allaorol (111,7 %) Baxmal (111,3 %) va Sh.Rashidov tumanlarida (110,5 %) qayd etildi.

### **Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**

*(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)*



*Dastlabki ma'lumotlar*

Nisbatan past o'sish sur'atlari Do'stlik (107,5 %), Zarbdor (108,6 %), Yangiobod (108,7 %) va Mirzacho'l (108,7 %) tumanlarida kuzatildi.

### **Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>4181,7</b>	<b>115,1</b>	<b>3 058,6</b>
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	78,0	110,2	1714,9
Baxmal	155,3	111,3	1 006,9
G'allaorol	250,6	111,7	1 478,3
Sh. Rashidov t.	355,3	110,5	1 635,8
Do'stlik	233,5	107,5	3 603,0
Zomin	221,6	109,6	1 369,9
Zarbdor	103,6	108,6	1 221,4
Zafarobod	68,3	109,1	1384,8
Mirzacho'l	120,3	108,7	2358,4
Paxtakor	134,0	109,1	1 820,7
Forish	134,7	114,4	1 468,9
Yangiobod	49,0	108,7	1 761,5
Jizzax shahri	2277,5	119,8	12941,2

Ko'rileyotgan davrda hududlar bo'yicha Jizzax shahrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylaj hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 558,2 mlrd. so'mga oshdi va 2277,5 mlrd. so'mga yetdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sh.Rashidov (355,3 mlrd. so'm), G'allaorol (250,6 mlrd. so'm), Do'stlik (233,5 mlrd. so'm) va Zomin (221,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

---

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi -  
3 058,6 ming so'm**

---



O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 606,0 ming so'mga oshdi va 3 058,6 ming so'mga teng bo'ldi, uning o'sishi 112,7 % ni tashkil etdi.

Mamlakatimizda postindustrial axborot jamiyat shakllanishi bilan xizmatlar sohasining roli tobora o'sib boradi, chunki aholining ehtiyojlari doimiy ravishda o'sib boradi va ularning xilma-xilligi doimiy ravishda kengayib boradi.


Keyinchalik yangi ish o'rinalarini yaratish orqali iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash, investitsiya, soliq, pul-kredit davlat siyosatini, fan va texnik siyosatini takomillashtirish va yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali kichik biznesni rivojlantirish bozor xizmatlarining tarmoqlar tarkibida, sifatli tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

## Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Jizzax shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Bu yerda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 12 941,2 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.


Baxmal (1006,9 ming so'm), Zarbdor (1221,4 ming so'm) va Zomin (1369,9 ming so'm) tumanlarida boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi nisbatan past bo'ldi.



Xizmatlar sohasining rivojlanishi - jamiyatning muvaffaqiyatli ravnaq topishiga asosi. Ijtimoiy ehtiyojlar tizimidagi yuz beradigan o'zgarishlar xizmatlar sohasining o'sish omili hisoblanadi. Texnika, texnologiya, ishlab chiqarish tuzilmalarining murakkablashishi, aholi turmush darajasining oshishi, shuningdek, insonning o'zini mukammallashtirishi, ya'ni ta'llim va madaniyat darajasini oshirishi hisobiga ishlab chiqarish va aholi ehtiyojlari izchil ravishda kengaytirib boradi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga  
xizmatlar hajmining o'sish sur'atlari, %  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Jizzax shahri (17,8 %), Forish (12,6 %), G'allaorol (9,4 %), Baxmal (9,0 %) va Arnasoy tumanlarida (8,7 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Do'stlik (105,5 %), Zarbdor (105,9 %), Mirzacho'l (106,2 %), Paxtakor (107,0 %) va Yangiobod (107,1 %) tumanlarida qayd etildi.


Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Deyarli barcha hududlarda bozor xizmatlari hajmining o'sishi moliyaviy va transport xizmatlari, savdo va aloqa xizmatlari, shu jumladan axborotlashtirish kabi xizmatlar tarkibidagi ulushining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatilmoqda.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 33,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (21,3 %), transport xizmatlari (16,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,8 %) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmining bir oz oshishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,5 % ga yetdi. Shuningdek sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar – 1,8 %, ijara xizmatlari - 2,3 % va kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 2,6 % bo'yicha uncha yuqori bo'limgan ulush qayd etildi.

*Dastlabki ma'lumotlar*


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>4181,7</b>	<b>115,1</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	202,6	110,7
Moliyaviy xizmatlar	890,4	180,3
Transport xizmatlari	698,7	102,4
shu jumladan:		
avtotransport xizmatlari	682,0	102,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	124,7	111,8
Savdo xizmatlari	1 381,5	102,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	116,0	102,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	178,1	116,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	75,8	112,3
Ijara xizmatlari	96,2	102,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	109,2	100,2
Shaxsiy xizmatlar	125,4	103,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	62,9	111,1
Boshqa xizmatlar	120,2	100,4

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (180,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (116,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,3 %) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida (111,8 %) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**




Yuqori bo'limgan o'sish kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (100,2 %), shuningdek boshqa xizmatlarda (100,4 %) belgilandi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Hozirgi vaqtida viloyatimiz transport infratuzilmasini rivojlantirish va viloyatda yuklar va yo'lovchilarni barcha yo'nalishlarda tashish ehtiyojlarini qondirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

**2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha  
avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar ulushi  
(avtomobil xizmatlarining umumiylajmiga nisbatan),%**




Ta'kidlash joizki, transport xizmatlari hajmining o'sishi, birinchi navbatda, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan boqliq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqposlanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

**Tashish turlari bo'yicha avtomobil transportida  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 48,0 % ga yetdi.



Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 52,0 % ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*


Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Bir mamlakatning boshqa davlatlarlar bilan tovarlar importi va eksportidan iborat bo'lgan savdosи tashqi savdo, turli mamlakatlarning bir-biri bilan umumiyl savdo-sotig'i xalqaro savdo hisoblanadi. Ma'lum bir davlat ichida savdo ijtimoiy zarur iste'molchiga tovarlarni yetkazib berish funksiyani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Savdo shu jumladan, elektron xizmatlarining yalpi ishlab chiqarilgan hajmi joriy narxlarda yalpi daromadi, ya'ni sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyl qiymati aks ettiriladi. Tovarlarni boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotish bo'yicha bitim tuzilgan taqdirda, xizmatlar qiymatida mukofot miqdori aks ettiriladi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyl hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 33,0 % ni tashkil etib, bu 1381,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uchi – 79,2 % ga to'g'ri keladi.

### Savdo xizmatlari tarkibi, % (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)




*Dastlabki ma'lumotlar*

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 15,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdosi bo'yicha xizmatlarning eng katta ulushi Mirzacho'l (95,9 %), Paxtakor (93,2 %) va Do'stlik (91,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

### **Hududlar kesimida savdo xizmatlarining ulushi, % (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Chakana savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

*Dastlabki ma'lumotlar*

Bu ko'rsatkich Jizzax shahrida ahamiyatsiz, uning ulushi 70,4 % ni tashkil etdi.

Biroq, Jizzax shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori bo'ldi - 24,9 %. Mirzacho'l tumanida eng kichik ulush – 1,9 %.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda nisbatan yuqori ulush Sh.Rashidov (10,8 %), Arnasoy (8,5 %), Zomin (8,3 %), Baxmal (6,7 %) va Zafarobod (6,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu xizmatlarning eng kichik ulushi Yangiobod (1,1 %), Mirzacho'l (2,2 %), Zarbdor (2,9 %), Do'stlik (3,1 %) va Forish (4,4 %) tumanlarida qayd qilindi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi -  
890,4 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati -  
180,3 %**

**Xizmatlarning umumiyligi ulushi -  
21,3 %**



*Dastlabki ma'lumotlar*

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 890,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 422,2 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 97,8 % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, %**  
*(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)*



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,1 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 6,5 % oralig'ida qayd etildi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori salmogga ega emas va u 2,4 % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari va aloqa vositalari bilan jihozlanganligi kuzatilmoqda.

*Dastlabki ma'lumotlar*

2019-yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 202,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 110,7 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.




**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi -  
202,6 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati -  
110,7 %**

**Xizmatlarning umumiyligi hajmidagi ulishi -  
4,8 %**

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 98,9 % ni tashkil etdi. Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiyligi

*Dastlabki ma'lumotlar*

hajmida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar 0,5 %, nashriyotchilik xizmatlari – 0,4 %, axborotlashtirish xizmatlari – 0,2 % ni tashkil etishi qayd etildi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

### Ta'lif sohasidagi xizmatlar




2019-yil yanvar-dekabr oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 178,1 mld. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 4,3 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan ta'lif sohasidagi bozor xizmatlarning eng katta hajmi Jizzax shahrida qayd etildi. 2019-yil yanvar-dekabr oylarida 131,6 mld. so'mga yetdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

**Hududlar kesimida ta'lif sohasida  
ko'rsatilgan bozor xizmatlari, mlrd. so'm  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, Jizzax shahrida ta'lif sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 34,8 mlrd. so'mga oshdi.

Shu bilan birga, Do'stlik (2,2 mlrd. so'mga) va Zomin (1,8 mlrd. so'm) tumanlarida o'sish kuzatildi. Yangiobod tumanida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmining biroz o'sishi qayd etildi. Bu yerda u atigi 0,3 mlrd. so'mga oshdi va atigi 0,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Dastlabki ma'lumotlar

2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etdi, hajmi esa 25,4 mlrd. so'mga oshdi va 124,7 mlrd. so'mga yetdi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %

(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 89,2 % bilan ustunlik qiladi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,8 % ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, kottejlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Jizzax shahrida – 52,5 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,8 mlrd. so'mga oshishi kuzatildi.

Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining eng katta hajmi Forish (19,8 mlrd. so'm), Sh.Rashidov (17,3 mlrd. so'm) va Zomin (11,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

### **Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



*Dastlabki ma'lumotlar*

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kichik hajmi Yangiobod (0,1 mlrd. so'm) va Arnasoy (0,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu turdagи xizmatlarning nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Forish (204,8 %) va Sh.Rashidov (113,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Hozirgi kunda mamlakatda tibbiyat va sog'liqni saqlash bir xil yo'nalishda mustaqil O'zbekiston fuqarolarining hayot darajasi va sifatini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan dinamik o'zgarishlar bilan rivojlanmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyat xodimlari mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalar va davolash usullarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugun viloyatning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyat markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziologiya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.



Umumiy hajmida  
ulushi - 1,8 %

Hajmning  
o'sishi -  
15,7  
mlrd. so'mga

O'sish sur'ati -  
112,3 %


**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**

*Dastlabki ma'lumotlar*

2019-yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 15,7 mlrd. so'mga oshdi va 75,8 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha yetakchi o'rinni Jizzax shahri egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 6,9 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi bozor xizmatlari umumiylajmi hajmidagi ulushi 43,4 % ni tashkil etdi.

### **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida hududlar ulushini taqqoslanishi, %**





*Dastlabki ma'lumotlar*

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Jizzax shahri (43,4 %), Zomin (34,0 %), Sh.Rashidov (5,7 %) va G'allaorol (4,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi xizmatlarning ulushi nisbatan katta bo'limgan hududlar Zarbdor (0,6 %), Zafarobod (0,6 %) va Arnasoy (0,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tuzilmaviy moslashtirishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun hal qiluvchi shartdir.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**71-230-83-57**